

## **BOJXONA QIYMATI VA TARIFLARINING ICHKI VA TASHQI SAVDOGA TA'SIRINI BAHOLASH**

**Zafarjon Toir o'g'li RAZAQOV**

magistrant

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti

Toshkent, O'zbekiston

e-mail: [zafarjonrazakov23@gmail.com](mailto:zafarjonrazakov23@gmail.com)

**Sharapat Maxsetbay uli XALMURATOV**

magistrant

Bojxona qo'mitasining Bojxona instituti

Toshkent, O'zbekiston

e-mail: [shara.medved@gmail.com](mailto:shara.medved@gmail.com)

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada bojxona qiymati va tariflarining ichki va tashqi savdoga ta'sirini baholash masalasn yoritilgan. Shuningdek tariflarning iqtisodiy mexanizmlarga, xususan, import va eksport hajmlari, mahalliy ishlab chiqarish hamda iste'molchilar xatti-harakatlariga ta'siri ko'rib chiqilgan.

**Tayanch so'zlar:** bojxona qiymati, tariflar, tashqi savdo, ichki savdo, iqtisodiy tahlil, "Katta savdo" nazariyasi.

## **ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ТАМОЖЕННОЙ СТОИМОСТИ И ТАРИФОВ НА ВНУТРЕНнюю И ВНЕШнюю ТОРГОВлю**

**Зафаржон Тоир угли РАЗАКОВ**

магистрант

Таможенный институт Таможенного томитета

Ташкент, Узбекистан

e-mail: [zafarjonrazakov23@gmail.com](mailto:zafarjonrazakov23@gmail.com)

**Шарapat Махсетбай угли ХАЛМУРАТОВ**

магистрант

Таможенный институт Таможенного комитета

Ташкент, Узбекистан

e-mail: [shara.medved@gmail.com](mailto:shara.medved@gmail.com)

### **Аннотация**

Данная статья посвящена оценке влияния таможенной стоимости и тарифов на внутреннюю и внешнюю торговлю. В статье рассматривается воздействие тарифов на экономические механизмы, в частности, на объемы импорта и экспорта, местное производство и поведение потребителей.

**Ключевые слова:** таможенная стоимость, тарифы, внешняя торговля, внутренняя торговля, экономический анализ, теория «Большой торговли».

Bojxona tariflari va qiymati davlatlarning ichki va tashqi savdo siyosatida muhim rol o'ynaydi. Tariflar import va eksport jarayonlarini tartibga solish,


mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish va davlat daromadlarini oshirish vositasi sifatida qo'llaniladi [8]. Biroq, ularning iqtisodiy samaradorligi va savdo oqimlariga ta'siri har doim munozarali mavzu bo'lib kelgan.

Maqsadimiz tariflarning iqtisodiy natijalarini aniqlash va ularning savdo jarayonlariga ta'sirini vizual tarzda ko'rsatish uchun metodologik asos yaratish. Tadqiqot savollariga quyidagilar kiradi: Tariflar qanday qilib import hajmini kamaytiradi? Ular mahalliy ishlab chiqarishga qanday ta'sir qiladi? Tashqi savdo balansiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Tariflarning savdoga ta'siri haqidagi tadqiqotlar iqtisodiyotda uzoq vaqtdan beri o'rganib kelinmoqda. Adam Smit va David Rikardo kabi klassik iqtisodchilar erkin savdoni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, proteksionizm tarafdorlari mahalliy sanoatni himoya qilish uchun tariflardan foydalanishni muhim deb bilishgan [5]. Zamonaviy tadqiqotlarda tariflarning iste'molchilar farovonligi, ishlab chiqaruvchilar daromadi va davlat byudjetiga ta'siri ko'proq e'tiborga olinmoqda [1].

Shuningdek John Maynard Keynes (*"Katta savdo" nazariyasi*) va uning davridagi iqtisodchilarning xalqaro savdo va proteksionizm bo'yicha iqtisodiy tahlillar amalga oshirgan [4]. Ammo optimal tarif nazariyasining asosiy rivojlantiruvchilari orasida XX asr iqtisodchilaridan Abba Lerner [6] va Harry Johnson [3] kabi olimlar ham muhim hissa qo'shgan. Ular tariflarning iqtisodiy samaradorlikka va milliy farovonlikka ta'sirini tahlil qilishgan.

Tarif va bojxona qiymatini tashqi savdo hamda ichki savdoga ta'sirini tahlil qilishda ichki iste'mol va ichki ishlab chiqarish nisbatidan foydalanamiz. Agar mahsulot narxi yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi yuqori bo'ladi, lekin mahsulotga bo'lgan talab kamayadi (1-rasm).



**1-rasm. Talab va ichki ishlab chiqarishning mahsulot narxi bo'yicha o'zgarish grafigi.**

Jahon narxi (JN) – bu xalqaro bozorda mahsulotning narxi bo'lib, u erkin savdo sharoitida mamlakat ichki bozoriga import qilinadigan narx sifatida qabul qilinadi. Tariflar yoki boshqa to'siqlar bo'lmaganda, ichki bozor narxi jahon narxiga teng bo'ladi. Bu holatda ichki bozor talab va taklif egri chiziqlari asosida muvozanat holatiga keladi (2-rasm).

**Talab chizig'i.** Iste'molchilarning mahsulotga bo'lgan talabini ko'rsatadi (qizil chiziq). Narx pasayganda talab oshadi.

**Taklif chizig'i (Ichki ishlab chiqarish).** Mahalliy ishlab chiqaruvchilarning taklifini ko'rsatadi (ko'k chiziq). Narx oshganda taklif oshadi.

Diagramma talab (qizil chiziq) va ichki ishlab chiqarish (ko'k chiziq) egri chiziqlarini aks ettiradi:



2-raqam. Bu tarif qo'llanilmasdan oldingi narx darajasini (jahon narxi) ko'rsatadi. Bu holatda iste'molchilar jahon narxida mahsulot sotib olishadi, import hajmi esa  $Q_{i1}$  dan  $Q_{t1}$  gacha bo'ladi.

3-raqam. Agar mahsulot narxi jahon narxida bo'lsa, ichki ishlab chiqarish hajmi  $Q_{i1}$  ga teng bo'ladi.

4-raqam. Agar mahsulot narxi jahon narxida bo'lsa, talab hajmi  $Q_{t1}$  ga teng bo'ladi.

5-raqam. Davlatlar tariflarni asosan bojxona qiymatidan hisoblaydi, agar mahsulot narxi bojxona qiymatida bo'lsa, narx oshishi natijasida import hajmi  $Q_{i2}$  va  $Q_{t2}$  oralig'iga kamayadi.

6-raqam. Mahsulot narxi bojxona qiymatida bo'lsa, ichki ishlab chiqarish hajmi  $Q_{i1}$  dan  $Q_{i2}$  ga ortadi.

7-raqam. Mahsulot narxi bojxona qiymatida bo'lsa, talab hajmi esa  $Q_{t1}$  dan  $Q_{t2}$  ga kamayadi.

8-raqam. Tarif qo'llanilganidan keyin mahsulotning yangi narxini ko'rsatadi ( $BQ+Tarif$ ). Narx oshishi natijasida import hajmi  $Q_{i3}$  va  $Q_{t3}$  oralig'iga kamayadi.

9-raqam. Agar mahsulot narxi  $BQ+Tarif$  narxida bo'lsa, ichki ishlab chiqarish hajmi  $Q_{i2}$  dan  $Q_{i3}$  ga ortadi.


10-raqam. Agar mahsulot narxi  $BQ+Tarif$  narxida bo'lsa, talab hajmi esa  $Q_{t2}$  dan  $Q_{t3}$  ga kamayadi.

*Ijtimoiy zarar* (inglizcha: *Deadweight Loss*) iqtisodiyotda resurslarning samarasiz taqsimlanishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy yo'qotishni anglatadi [7]. Bu yo'qotish na iste'molchilar, na ishlab chiqaruvchilar, na hukumat foydasiga ishlamaydi va iqtisodiy tizimning umumiy samaradorligini pasaytiradi. Ushbu tushuncha ko'pincha bozor aralashuvlari (masalan, soliqlar, tariflar, subsidiyalar yoki narxlarning qonuniy cheklovlari) natijasida yuzaga keladigan samarasizlikni tahlil qilishda ishlatiladi. Ijtimoiy zarar bozor muvozanatidan chetga chiqish natijasida yuzaga keladi. Bizning misolimizda  $JN$  (*Jahon Narxi*) darajasida bozor muvozanati mavjud. Bu holatda iste'molchilar  $Q_{t1}$  miqdorida mahsulot sotib olishadi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar  $Q_{i1}$  miqdorida ishlab chiqaradi

hamda  $Q_{i1}-Q_{i1}$  miqdorida import qilinadi. Bojxona qiymati jahon narxidan baland bo‘lganligi va ichki proteksionizm maqsadida boj tariflari qo‘llanilganligi natijasida bozor muvozanatidan chetga chiqishi yuz beradi.

Davlat byudjetiga undirilishi mumkin bo‘lgan bojxona to‘lovlari quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$BT = ((BQ + \text{Tarif}) - BQ) * (Q_{t3} - Q_{i3})$$



**3-rasm. Bojxona to‘lovlarining ko‘lami.**

Davlat byudjetiga undirilishi mumkin bo‘lgan bojxona to‘lovlar hajmini oshirish uchun 3-rasmdagi bojxona to‘lovlari to‘rtburchagi eng katta yuzaga ega bo‘lishi kerak. Teng yonli uchburchak ichiga ichki chizilgan eng katta yuzaga ega bo‘lgan to‘rtburchakni [2] topish formulasi quyidagicha (4-rasm):


$$S = \frac{b * h}{4}$$

Bu yerda,

$S$  – teng yonli uchburchak ichiga ichki chizilgan to‘rtburchak yuzasi;


$b$  – teng yonli uchburchakning asosi;

$h$  – teng yonli uchburchakning balandligi (*Bozor narxi – Bojxona qiymati*).



**4-rasm. Optimal tarif uchburchagi.**

Bunda optimal tarif stavkasini belgilash muhim omil sifatida ko‘riladi (5-rasm). Chunki optimal tarif stavkasi to‘rtburchakning yuqori nuqtasini belgilab beradi hamda uchburchak balandligining teng yarmini kesib o‘tadi ( $y=h/2$ ).



**5-rasm. Tarif va optimal tarifning solishtirma grafiqi.**

Demak, Optimal tarif stavkasini topish formulasi quyidagicha bo‘ladi:

BQ – 100%


$h/2$  – Optimal tarif stavkasi (Opt) %

$$Opt = \frac{h \times 100}{2 \times BQ}$$

$$Opt = \frac{h \times 50}{BQ}$$

$$Opt = \frac{50 \times (BN - BQ)}{BQ}$$

1. Teng yonli uchburchak qancha katta bo'lsa, ichiga ichki chizilgan to'rtburchak yuzasi ham shuncha kattalashadi. Ya'ni, teng yonli uchburchakning asosi qancha katta bo'lsa, uchburchak yuzasi ham shuncha katta bo'ladi. Rasmda uchburchak asosining katta bo'lishi bojxona qiymati jahon narxiga eng yaqin oraliqda bo'lishini talab etadi (6-rasm). Bu holat iqtisodiy jihatdan shuni anglatadiki, bojxona qiymati jahon narxidan minimal darajada og'ishganda, import hajmi va ichki ishlab chiqarish o'rtasidagi farq (ya'ni, uchburchak asosi) maksimal darajada saqlanib qoladi. Natijada, davlat byudjetiga undiriladigan bojxona to'lovlari yig'indisi (to'rtburchak yuzasi) ham oshadi.



**6-rasm. Bojxona qiymatining bojxona to'lovlari tushumini ortishiga ta'siri.**

Ushbu tadqiqot bojxona qiymati va tariflarining ichki hamda tashqi savdogaga ta'sirini baholashga qaratildi. Rasm va diagrammalar asosida olib borilgan tahlillarga ko'ra bojxona qiymati va tariflar import hajmi, ichki ishlab chiqarish darajasi va iste'molchilar talabiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tariflarning oshishi

importni cheklab, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantiradi, biroq bu iste‘molchilarga narxlarning oshishi shaklida salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, optimal tarif stavkasini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi, chunki haddan tashqari yuqori tariflar importni haddan tashqari qisqartirishi va bozordagi samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Shuningdek, davlat bojxona tushumlarini oshirish uchun bojxona qiymatini xalqaro narxlarga nisbatan optimal oraliqda belgilashni ko‘rib chiqishi zarur.

Tahlillar iqtisodiy samaradorlikni oshirish va davlat daromadlarini optimallashtirish nuqtai nazaridan muvozanatli tarif siyosati shakllantirish muhimligini ko‘rsatadi. Ushbu natijalar iqtisodiy siyosat yurituvchi tashkilotlar uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Feenstra, R. C., “Advanced International Trade: Theory and Evidence”, Princeton University Press, 2016.
2. Jim Wilson, “Mathematics Education”, University of Georgia, 2015.
3. Johnson, H. G., “Optimum tarif and Retaliation”, Economic Study Society, London, 1973.
4. Keynes, J.M., “The General Theory of Employment, Interest, and Money”, Macmillan, London, 1936.
5. Krugman P., Obstfeld M., “International Economics: Theory and Policy”, Boston: Pearson Addison-Wesley Press, 2009.
6. Lerner, A. P., “The Economics of Control”, The Macmillan Company, New York, 1944.
7. Martin, F., “Tax avoidance and the deadweight loss of the income tax”, National Bureau of Economic Research, Cambridge, 1999.
8. World Bank, World Development Report, 2023.